

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar oyida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR

1

3157,0 mlrd.so'm

sanoat ishlab chiqarish hajmi

2

97,3 %

sanoat ishlab chiqarish indeksi

3

167,6 mlrd.so'm

iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

4

101,7 %

o'sish sur'ati

5

5,3 %

istemol tovarlarinig jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

6

8,8 %

sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar oyida viloyatimiz korxonalari tomonidan 3157,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 97,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 100,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 95,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 102,5 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 162,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1018,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 32,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1914,2 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 60,6 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,3 % ni, o'rta-yuqoritexnologiyali - 5,5 %, o'rta-quyi texnologiyali - 49,6 % va quyi texnologiyali - 5,3 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi ulushi - 5,9 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 72,3 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi - 4,1 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish ulushi - 7,8 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi - 4,4 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|-------------------------|
|---|--|---|-------------------------|

Portlandsement, ming tonna

266,0



240,0

90,2

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

2465,0



3129,0

126,9

Ammoniy nitrat, ming tonna

18,46



24,00

130,0.

Temir beton, tonna

3384,80



3606,91

106,6


Elektr, gaz, bug' bilan a'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 218,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|--------------------------------------|---|--------------------------------------|-------------------|
|--------------------------------------|---|--------------------------------------|-------------------|

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

4637,0



3014,0

65,0

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm

1208,4




1476,1

122,2


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 167,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 101,7 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 5,3 % ni tashkil etdi.

Yanvar oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 116,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.


2018 yil yanvar

95,8 %



2019 yil yanvar


96,3 %



- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 0,1 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 99,9 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 279,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi

2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Xatirchi (100,0 %), Uchquduq (99,9 %), Qiziltepa (74,7 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (73,5 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,8 %), Konimex (21,3 %), Karmana (37,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini


Bugungi kunda viloyatimizda 1862 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 577 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 31,0 %) Navoiy shahriga, 326 tasi (17,5 %) Karmana tumaniga, 252 tasi (13,5 %) Nurota tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2019 yil 1 fevral holatiga)



2019 yil yanvar oyida viloyatimizda 62 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 24,2 foizi Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019 yil yanvar)



Navoiy viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (436) 223-33-29